

# AXBOROTNOMA

---

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
DAVLAT TEST MARKAZI ILMIY-USLUBIY JURNALI

---

**Ta’ischi:**  
Davlat test markazi

**2018**

**2/1**

(maxsus son)

Bir yilda 4 marta chiqadi. O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2007-yil 19-aprelda  
qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Guvohnoma №0247

TOSHKENT

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
M.Zakirova, <i>"Oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul test sinovlarida qo'llaniladigan test topshiriqlarini takomillashtirish natijalari haqida"</i> .....	4
M.Mirvaliyeva, Z.Rasulova, <i>"The role of computer information technologies in the development of competence of teachers and students"</i> .....	7
Test topshiriqlari:	
Ona tili va adabiyot .....	11
Русский язык и литература .....	25
Qaraqalpaq tili hám ádebiyat .....	35
Ingliz tili .....	46
Nemis tili .....	55
Fransuz tili .....	66
Tarix .....	74
История .....	85

## KIRISH

"Axborotnoma" ilmiy-uslubiy jurnalining 2-soni Davlat test markazi tomonidan test texnologiyalarini rivojlantirish, pedagogik o'lchov vositalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida fanlardan shakllantirilgan test topshiriqlari variantlarini chop etish uchun maxsus bag'ishlandi. U ikki qismdan iborat. Gumanitar fanlardan test topshiriqlari variantlari jurnalning 2/1-maxsus sonida, aniq va tabiiy fanlar bo'yicha 2/2-maxsus sonida chop etilmoqda.

Jurnalning ushbu 2/1-maxsus sonida oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul test sinovlarida qo'llaniladigan test topshiriqlarini takomillashtirish natijalariga bag'ishlangan maqola ham berilgan. Maqolada testologiya va pedagogik o'lchovlarning nazariy asoslari va ularni xorijiy tajribada qo'llanilishini o'rganish asosida Davlat test markazi mutaxassislari tomonidan test topshiriqlarini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar bayon qilingan.

Shuningdek, o'qituvchilar va talabalar malakasini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni mavzusiga bag'ishlangan maqola ham berilgan

Test topshiriqlarini takomillashtirish maqsadida fanlar bo'yicha **o'zbek va rus tillarida** 3-4 variantda tuzilgan test topshiriqlari mazmuni birinchi bosqichda ekspertiza qilinib, keyingi bosqichda aprobatsiya test sinovlaridan o'tkazildi. Aprobatsiya natijalarining tahlili asosida testlar xususiyatlarining sifatini ta'minlaydigan test topshiriqlari aniqlandi va ular 2018-yilda oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga qabul test sinovlarini o'tkazishda qo'llaniladigan test topshiriqlari bazasiga kiritildi.

"Axborotnoma" jurnalining mazkur 2/1 - maxsus sonida **gumanitar fanlar** (ona tili va adabiyot, rus tili va adabiyot, qoraqalpoq tili va adabiyot, ingliz tili, nemis tili, fransuz tili va tarix) bo'yicha **test topshiriqlari chop etildi**.

Aniq va tabiiy fanlardan pedagogik o'lchov vositalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida shakllantirilgan test topshiriqlari variantlari jurnalning keyingi 2/2-maxsus sonida chop etiladi. Jurnalning ushbu soni 2018-yilda oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga umumta'lim fanlari bo'yicha qabul test sinovlariga tayyorgarlik ko'rayotgan abituriyentlar hamda keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Mazkur sonda chop etilgan test topshiriqlari bo'yicha takliflar, savollar yoki e'tirozlar bo'lsa, [test@dtm.uz](mailto:test@dtm.uz) elektron manziliga yuborishingizni so'raymiz.

## **Oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul test sinovlarida qo'llaniladigan test topshiriqlarini takomillashtirish natijalari haqida**

**M.Zakirova**

Davlat test markazi

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-noyabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda Davlat test markazining faoliyatini va oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-fevraldagi 130-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi to'g'risida Nizom" tasdiqlangan bo'lib, unda Davlat test markazining asosiy vazifalaridan biri – test texnologiyalarini rivojlantirish, pedagogik o'lchov vositalarini takomillashtirish sohasida amalga oshiriladigan ishlar aniq belgilangan. Jumladan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq bo'lgan fanlar bo'yicha turli xil murakkablik darajasidagi test topshiriqlarini ishlab chiqish, ularni bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishini tashkil etish, amaldagi va rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o'rganish asosida test topshiriqlari bankini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi 261-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish uchun test sinovlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"da test topshiriqlarini umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari o'quv dasturlariga muvofiq tuzilishi, test topshiriqlari kitobidagi mavjud har bir fan 30 tadan test topshirig'ini o'z ichiga olishi belgilangan.

Qayd etilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, Davlat test markazining mutaxassislari tomonidan test texnologiyalarini rivojlantirish, pedagogik o'lchov vositalarini takomillashtirish sohasida ma'lum ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqotlar natijalari asosida umumta'lim fanlaridan tuzilgan test topshiriqlari takomillashtirildi va bazasi shakllantirildi. Jurnalning 2/1, 2/2 - maxsus sonlarida ushbu takomillashtirilgan test topshiriqlari nashr etilmoqda. Test topshiriqlarini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar quyida bayon qilindi.

Xorijiy tajribani o'rganish asosida fan mutaxassisleri va ekspertlari tomonidan qabul test sinovlari fanlaridan test topshiriqlarini tuzishga asos bo'ladigan me'yoriy hujjatlar yaratildi. Bunda 2018-yilda oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga umumta'lim fanlari bo'yicha qabul test sinovlarini o'tkazish uchun umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlari va fanlarning o'quv dasturlari asosida fan mazmuni tarkibi va abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar kodifikatori hamda test topshiriqlari tafsilotlari ishlab chiqildi. Test topshiriqlari tafsilotlariga muvofiq fanlardan 3-4 xil murakkablik darajasidagi test topshiriqlari ishlab chiqilmoqda. Ularni bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishini amalga oshirish maqsadida fanlar bo'yicha tuzilgan test topshiriqlari mazmuni ekspert tekshiruvidan o'tkazilgandan keyingi bosqichda aprobatsiya test sinovlaridan o'tkazildi. Aprobatsiya test sinovlari Toshkent shahridagi 29 ta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari (23 ta akademik litsey, 6 ta kasb-hunar kolleji)da o'tkazildi. Test topshiriqlarini aprobatsiyadan o'tkazish jarayoniga ta'lim muassasalarining bitiruvchi, 3-bosqich o'quvchilari jalb etilib, test sinovlarida jami 2659 nafar o'quvchi qatnashdi.

Test topshiriqlarini aprobatsiyadan o'tkazish natijalari bo'yicha statistik tahlillar amalga oshirildi va uning natijalari asosida testlar xususiyatlarining sifati tashhislandi. Tashhishlashning statistik xarakteristikalarini yordamida test topshiriqlariga qo'yilgan asosiy talablarga tegishli ko'rsatkichlar aniqlandi va eng muhim ko'rsatkichlardan – test topshiriqlarining ishonchliligi va distraktorlarning (muqobil javoblarning) tahlili natijalari asosida test topshiriqlari takomillashtirildi. Bunda fanlar variantlaridagi ishonchliligi past (ya'ni, ishonchlilik koeffitsiyenti meyor darajasidan past) bo'lgan test topshiriqlari ekspertlar tomonidan qayta ko'rib chiqildi. Aprobatsiya test sinovlari natijalari asosida distraktorlar bo'yicha o'tkazilgan tahlil ayrim fanlardan test topshiriqlarining noto'g'ri muqobil javoblari distraktor funksiyasini bajarmaganligini ko'rsatdi. Ya'ni, ayrim test topshiriqlarining noto'g'ri muqobil javobini tanlaganlar foizi qabul qilingan me'yordan past. Bunday test topshiriqlari ekspertlar tomonidan qayta ko'rib chiqilib, muqobil javob o'zgartirildi yoki testdan chiqarib tashlandi.

Shuningdek, aprobatsiya test sinovlari natijalarining tahlili asosida test topshiriqlariga qo'yiladigan asosiy talablardan yana biri – test topshiriqlarining haqiqiy qiyinlik darajasi aniqlandi. Test topshirig'ining qiyinligi darajasi ko'rsatkichi aprobatsiya test sinovlarida sinovchilar tomonidan test topshirig'iga

berilgan to'g'ri javoblar salmog'i orqali aniqlandi. Test topshirig'i qiyinligi darajasi baholash ikki bosqichda amalga oshirildi. Birlamchi, testologiya va pedagogik o'lchovlar bo'yicha mavjud ilmiy ishlarni o'rganish natijasida aniqlangan aprior (nazariy) shkala etalon sifatida qabul qilindi va uning asosida test topshiriqlarining qiyinligi darajasi baholandi. Ikkinchi bosqichda, yanada aniqroq natijalarni olish uchun aprobatsiya sinovlarida fanlardan test topshiriqlari varianti bo'yicha eng kam va eng ko'p to'plangan ballarni inobatga olgan holda aposterior (haqiqiy) shkalalar ishlab chiqildi va ular asosida test topshiriqlarining haqiqiy qiyinligi darajasi baholandi.

Qayd etilgan tahlillar natijasida test topshiriqlari bazasida topshiriqlarning qiyinlik darajasi bo'yicha tegishli o'zgartirishlarni amalga oshirish tavsiya etildi. Tavsiyalar asosida test topshiriqlarining qiyinlik darajasi ekspertlar tomonidan qayta ko'rib chiqildi va test topshiriqlari bazasiga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

## **The role of computer information technologies in the development of competence of teachers and students**

**Mirvaliyeva M. Z.**

**Rasulova Z. Kh.**

Tashkent Institute of Design, Construction and  
Maintenance of Automotive roads

According to the concept of modern education, the main goal of vocational education is to train a qualified worker, competent, professionally skilled in his profession, capable of constant professional growth. The success of modernization of education, first of all, depends on the quality and effectiveness of professional activity and competence of educators. In recent years, very often the question arises about the use of new information technologies in the pedagogical activity of a foreign language teacher. As a rule, these are not only new technical means, but also forms and methods of teaching, a new approach to the learning process. The main goal of teaching foreign languages is the formation and development of a communicative culture of students and the teaching of practical mastery of a foreign language.

The task of the teacher is to create conditions for the practical mastery of the language of each student and in the choice of such teaching methods that would allow each student to show their activity and creativity. The teacher also needs to activate the cognitive activity of the student in the process of teaching foreign languages. Modern methods, such as training in cooperation, project methodology using new information technologies and Internet resources, help to realize a person-oriented approach in teaching, provide individualization and differentiation of education, taking into account the abilities of students, their level of training, inclinations, interests and the teacher should use these methods in their pedagogical activities [1]. The use of computer information technologies in the pedagogical activity of a foreign language teacher is a priority, as it helps to transform learning into a foreign language into a creative process, and many students, even the weakest ones, begin to unfold, cease complexing and show great interest in learning a foreign language. Thus, a computer is the most suitable assistant to the teacher in teaching a foreign language, the purpose of which is interactive communication. The use of computer training in the pedagogical activity of a foreign language teacher is a tremendous motivational potential. the colorfulness and fascination of computer

programs is of great interest to students.

The computer is an important assistant for the teacher in developing an English class. With the help of a computer and new programs, we can perform those types of tasks that, in our opinion, are the most difficult. Using a computer in teaching a foreign language has many advantages. In addition to increasing the student's motivational potential, the computer guarantees confidentiality. If the teacher does not keep a record of the results, only the student himself knows what mistakes he made and is not afraid that his other students of his group and the teacher will know his results, as the correctness of the performance of a particular type of work is checked and evaluated only by the computer. Thus, the student's self-esteem does not decrease, but the class creates a psychologically comfortable atmosphere. In addition, the use of a computer by a teacher in teaching a foreign language provides an opportunity to take into account the individual characteristics of students, to organize the independent actions of each student. The next, most significant advantage lies in the methodological advantages of information technology in the activities of the teacher. For about 15 years, the teachers have begun to apply the ability of the computer to respond immediately to the information entered to create simple training programs in the form of exercises.

The computer provides a greater degree of interactive learning than working in the classroom or in the language lab. All this is ensured by the constant and instant response of the computer to the student's answers in the course of the assignment. In addition, speaking about the use of computer technologies in teaching a foreign language, one cannot but note the importance of this process for the teacher himself, since new modern programs help the teacher in developing professional foreign language competence, which is the main thing in raising the professional level of the teacher teaching students to a foreign language language. This is due to the fact that Internet resources expand the linguistic space, and the teacher has the opportunity to follow the latest developments and programs related to teaching a foreign language and has the opportunity to communicate with native speakers of the language that he teaches students and owns himself. The ability to work with foreign-language information is becoming increasingly important. Basically, the proportion of information that is contained on the Internet is in English and it has in fact become the international language of communication in education and science. Even the most developed countries always learn and



adopt the positive experience of each other in these areas, which helps them make informed decisions. In addition, students and university lecturers are given the opportunity to travel abroad for internships in educational centers. There are various cooperation programs that are increasingly developed both in Europe and in the United States and allow teachers of higher education to study the experience in education, as well as participate in international research and teach in foreign universities. It is necessary to deepen the English-language preparation of students for their mobility, both in the education system and in the labor market, which increasingly acquire an international dimension [2]. Thus, the foreign language competence of higher education teachers is gaining in importance. In our country the problem of developing the foreign language competence of a teacher of higher education is given great attention, since the level of this kind of competence of Russian teachers leaves much to be desired.

The teacher's knowledge of a foreign language mainly consists of the training that they received at the school and university. And right now we have an excellent opportunity to improve this knowledge, supplement our foreign language culture, using the most effective methods of teaching a foreign language with the help of information technology. Some approaches to the methodology of teaching a foreign language are changing as a consequence of the intensive introduction of modern computer technologies into the educational process of a higher educational institution. In linguistic and foreign-language training of students and teachers, multimedia technologies are of paramount importance, and as a consequence, it is necessary to form an understanding of modern computer-based learning technologies, and to familiarize students and teachers with new computer programs, the principles of modern electronic dictionaries and other innovations that are provided to us Internet for the development of our foreign language competence. The computer market provides a huge variety of programs that teach a foreign language. Among the most interesting are those programs that include audio and video support for texts, the ability to record speech and control the mastery of the material [3]. One of the important components of this information-educational environment is communication and the basic means of communication are the following: forum, e-mail, the exchange of attachments with the teacher, chat and the exchange of personal messages.

The transition of the system of teaching foreign languages to the use of Internet

---

resources and other information and communication technologies is inevitable, since it is here that it is possible to use a foreign language in a real context, which contributes to the effective formation of foreign language competence of university teachers.

### **Bibliography**

1. E.I. Passov. New concept of foreign language education. - M., 2000.
2. L.I. Gure. Postgraduate education of university teachers in conditions of innovation processes.-Kazan: RIC "School", 2008. - 243 p.
3. I.V. Pozdeev. Learning system Moodle.

ONA TILI VA ADABIYOT

I variant

1. Insonparvarlik so'zining yetakchi morfemasidagi barcha undoshlar qaysi xususiyatiga ko'ra birlashtiruvchi belgiga ega bo'la oladi?  
A) jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra  
B) shovqinli yoki sonorlarga mansubligiga ko'ra  
C) hosil bo'lish o'rniga ko'ra  
D) hosil bo'lish usuliga ko'ra
2. Qaysi so'z imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan?  
A) tavsilot B) tashviqot C) tanavvul  
D) tafsiya
3. Qaysi gapda ega vazifasidagi so'z imloviy jihatdan xato yozilgan?  
A) Kongres ishida faqat tibbiyot xodimlarigina emas, boshqa soha vakillari ham ishtirok etmoqda.  
B) Solih maxdum xasis, ta'magir, har holda, uni yaxshilar qatoriga qo'shib bo'lmaydi.  
C) Kimki ulig'roq – anga xizmat kerak, Kimki kichikroq – anga shafqat kerak.  
D) Yosh san'atkorning qo'shig'ini olqishlab, tamoshabinlar qarsak chaldilar.
4. Qaysi gapda ma'nosi metonimiya usulida ko'chgan so'z to'ldiruvchi vazifasida kelgan?  
A) Yakshanba kuni "Bobur"ga aylangani bormoqchimiz.  
B) Ichkaridagi "shlyapa"ga ko'z-quloq bo'lib tur.  
C) Yig'ilishga hamma keldi, faqat mo'ylov ko'rinmadi.  
D) Chanqab ketganimdan men ham bir kosa suv ichdim.
5. Qaysi javobda berilgan fe'llar ot so'z turkumiga oid so'z bilan omonim bo'la oladi?  
A) qopmoq, turtmoq B) so'qmoq, o'smoq  
C) bormoq, chaqmoq D) ilmoq, quymoq
6. Qaysi gap tarkibida o'z paronimi bilan turli turkumga mansub bo'la oladigan so'z qatnashgan?  
A) Zaruriy muolajalar qilingandan keyin bemorning sog'lig'i xiyla yaxshilandi.  
B) Xira ko'zlar bilan suratga boqdi, U hamon o'shanday, sukutda hamon.  
C) Xalq ganjin yulmoqqa cho'zilgan qo'lga Biz alvon guldasta tutibmiz faqat.  
D) Shoh bolasiga – yurt va sipoh, darvesh bolasiga masjid-u xonaqoh kerak.
7. Qaysi gapda yasalish asosi yasama sifat bo'lgan ot ishtirok etgan?  
A) Garchi bu ishga o'ta sezgirlik bilan yondashgan bo'lsa ham, natijasidan biroz cho'chib turardi.  
B) Bo'ron tinimsiz guvullab turganida yonginadagi arava tagidan o'tib, Zavrak bilan Zulfiqor emaklab kirib kelishdi.  
C) Eshkakchilar ham ajablanib, bola ko'rsatgan tomonga qarashdi.  
D) U qisq ko'zlari bilan dengiz ufqiga boqar ekan, shodligini yashirolmay toqatsizlanayotgan bolaning holatini ham sezib turardi.
8. Qaysi gapda fe'llarning munosabat shakli bilan omonim bo'la oladigan nisbat qo'shimchasi qatnashgan?  
A) "Daraxtni yer ko'kartiradi, odamni – el", – deydi dono xalqimiz.  
B) Kechikib ekilgan g'alla ham, chigit ham, keyin berilgan ishlovlarga qaramay, yaxshi unmadi.  
C) Ko'z ochgani qo'ymaydi alam, Boshim qo'ysam kuydirar bolish.  
D) U akalari bilan ariq qazib, suvsiz cho'lga suv chiqaribdi.
9. Yasalish asosi fe'l bo'lgan faoliyat-jarayon otlari berilgan javobni aniqlang.  
A) chopiq, intiqlik  
B) ezmalik, terimchilik  
C) terim, ko'rik  
D) suvoqchilik, bosqinchilik

10. Qaysi gapda vazifa shakliga ko'ra o'zaro bir turga mansub bo'lgan fe'llar ikki o'rinda qatnashgan?
- A) *Qo'ziboy ishga aralashuvini ham, chiqib ketishini ham bilmadi.*  
 B) *Orqa tomonda o'tirgan Dilbar o'zini tutolmay qiqladi.*  
 C) *Kitobni o'qigach, anglagani shu bo'ldiki, hali juda ko'p shug'ullanishi kerak ekan.*  
 D) *Mehmonlar Matqovulning qistashiga qaramasdan ichkariga kirishmadi.*
11. *Jo'shadi buloqning kumush yoshlari, Ham mungli, ham shirin jildirashlari, Buralib ko'katlar ustidan chopar, Uzilgan marvarid yarqirashlari.*  
 Ushbu she'riy parchadagi fe'llarga oid to'g'ri fikrni aniqlang.
- A) *Parchada ikkita yasama fe'l ishtirok etgan.*  
 B) *Parchadagi fe'llar tarkibida nisbat qo'shimchasi mavjud emas.*  
 C) *Parchadagi fe'llarning barchasi kesim vazifasida kelgan.*  
 D) *Parchadagi yasama fe'llar turli turkumga oid so'zlardan hosil qilingan.*
12. Qaysi gapda qatnashgan barcha ko'makchilar yasama so'z bilan ifodalangan gap bo'laklarini shakllantirishga xizmat qilgan?
- A) *"Tinchlik tufayli ellar obod, xonadonlar tinch, – dedi otaxon donishmandlik bilan, – bu haqda bilib qo'ying".*  
 B) *U xuddi usta zargarlar kabi uzukni boshdan oyoq aylantirib qaradi, ammo hech narsani sezmagani uchun uni Naziraga qaytarib berdi.*  
 C) *"Goho miriqib dam olish uchun ham vaqt ajratish kerak-da", – dedi u beg'uborlik bilan tog' tomonga qarab.*  
 D) *U do'stidan xavotirlangani uchun changalzor tomon yurdi-yu, biroz qo'rqqoligi tufayli u yerga kirishga ikkilandi.*
13. Qaysi javobda moslashuv munosabatli so'z birikmasi ishtirok etmagan?
- A) *El-yurt baxtini kuylash menga yarashmas bo'lsa, Ko'nglimda armon yotar. . .*  
 B) *Bu hikmat sharhini o'yladim uzoq – Rostdan ona erur qiblai olam.*  
 C) *Gurkiragan olov – dilim yo'ldoshi, To'lqin urgan daryo – ko'zlarim yoshi.*  
 D) *Biz qirq yil yonma-yon, orzuga banda, Faqat saodatni tarannum etdik.*
14. *Ustozlarimiz bizga ushbu buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishni, ularni e'zozlash, ularning ushalmagan orzularini amalga oshirishni har doim uqtirib kelishgan.*  
 Ushbu gapda ishtirok etgan gap bo'laklari haqidagi qaysi fikr to'g'ri emas?
- A) *Olmosh bilan ifodalangan qaratqich aniqlovchi vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan.*  
 B) *Sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan.*  
 C) *Olmosh bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchi vositali to'ldiruvchiga tobelangan.*  
 D) *Sifat bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi vositali to'ldiruvchiga tobelangan.*
15. Qaysi gapda barcha to'ldiruvchilar mustaqil to'ldiruvchilar sanaladi?
- A) *Uning osongina yozilgandek ko'ringan misralarini o'qigan muxlislar yig'laydi, kuladi, hayajonga tushadi.*  
 B) *U dastlabki ta'limni ona shahrida oladi, yoshligidan aniq fanlarni o'rganadi, til va adabiyot bilan ham shug'ullanadi.*  
 C) *Muhammad Yusuf qo'shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini barala aytgan, yurt muhabbatini hech kimnikiga o'xshamagan misralarda ta'riflagan she'rlari bilan tanildi.*  
 D) *Odamlar uning she'rlarini hayajon bilan o'qir, kitoblarini do'konlardan sotib olishga shoshilar edilar.*

16. Qaysi gapda uyushiq nomustaqil hol qatnashgan?
- A) Xalqimiz uchun, Vatanimiz uchun g'ayrat bilan mehnat qilish har bir yurtdoshimizning muqaddas burchidir.
- B) Zorqishloq ko'chalarida, adir va soylarida, serdaraxt bog'larida ko'klam namoyishi kezadi.
- C) Adib mustaqillik yillarida shahar va qishloqlarimizda ro'y bergan o'zgarishlarni hayajonlanib tasvirladi.
- D) Shu kuni kechqurun, daladan qaytishda, unga hamroh bo'lishimni iltimos qildi.
17. *Shuni unutmangki, kitob bolani ham aqlan, ham ma'nan boyitadi, uni shaxs sifatida shakllantiradi, u bolaning hayotdagi eng yaqin tarbiyachisi, do'sti sanaladi.*  
Ushbu gapdagi fe'l kesimlar haqida bildirilgan to'g'ri fikrni toping.
- A) Ushbu gapda qatnashgan fe'l kesimlarning barchasi yasama so'z bilan ifodalangan.
- B) Ushbu gapda qatnashgan fe'l kesimlarning barchasi bir xil nisbat ma'nosini ifodalagan.
- C) Ushbu gapda qatnashgan fe'l kesimlar buyruq-istak va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalagan.
- D) Ushbu gapda qatnashgan fe'l kesimlar sodda va murakkab fe'l kesimlar sanaladi.
18. *"Yoshlar kelajagimiz poydevoridir", – ta'kidladi otaxon.*  
Quyida berilganlardan ushbu ko'chirma gapli qo'shma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda sodir bo'ladigan grammatik o'zgarishlar to'liq ajratib ko'rsatilgan javobni belgilang.  
1) ko'chirma gapning kesimi tushirib qoldiriladi; 2) ko'chirma gapning egasi qaratqich aniqlovchiga aylantiriladi; 3) muallif gapining egasi o'zlashtirma gap egasi bo'lib gap boshida keladi; 4) muallif gapining kesimi o'zlashtirma gap kesimi bo'lib keladi
- A) 1, 3, 4    B) 1, 2    C) 2, 3, 4    D) 2, 3
19. Kesimlari ismlarga mansub so'z bilan ifodalangan havola bo'lakli qo'shma gapni toping.
- A) Shunisi quvonarliki, sinfdagi o'quvchilarning hammasi bir-biri bilan ahil.
- B) Kim birovlariga yaxshilik qilsa, o'ziga ham, albatta yaxshilik qaytadi.
- C) Shuni angladimki, inson qobiliyati cheksiz ekan.
- D) Saxiylikni odat qilgan bo'lsa kim, Qo'ldan davlati ketmasin uning,
20. Paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud bo'lgan gapni aniqlang.
- A) Kechalar uyqusiz she'r yod olganim  
Tonggi ufqdagi yolqinlar aytsin.
- B) O'zga yurtda shox bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l.
- C) Yillar o'tar, o'tar asrlar qator,  
Dunyoga keladi yangi avlodlar.
- D) O'qiyotgan kitobimning uch bobini tugatdim.
21. Qaysi javobda paronim bilan bog'liq xatolik mavjud?
- A) O'tgan asrning so'nggi kuzi Qorabuloqqa ochiq chehra bilan keldi.
- B) Derazamning oldida bir tup  
O'rik oppoq bo'lib gulladi.
- C) Fildek zo'r bo'lsang-u she'rdek urishqoq,  
Nazdimda, jangdan sulh ming bor afzalroq.
- D) Davron bir necha bor dushman iskanjasiga tushgan, biroq hiyla-yu hunar ishlatib g'olib chiqqan.
22. *"Yurtimga farzandim ega bo'ldi, deb Xaloyiqni xabar qilib yig'dirdi, Qancha so'qim, qancha qo'yni so'yidirdi. Necha yoqdan endi o'choq o'yidirdi..."*  
Ushbu parchada xalq dostonlaridagi qaysi qahramon otasining el-u xalqqa to'y berishi tasvirlangan?
- A) Alpomishning    B) Kuntug'mishning  
C) Rustamxonning    D) Ravshanning
23. "Avesto"da ulug'langan "Quadratli va Omilkor", "maqtovlarga loyiq", "sharafga loyiq" qahramon nomini ko'rsating.
- A) Varaxran    B) Sraosha  
C) Spitama Zaratushtra    D) Mitra

24. Qaysi javobda Alisher Navoiy "Xamsa"ga kiruvchi ikkinchi doston qahramoni haqidagi ma'lumot berilgan?

- A) *U suv va quruqlikda zulmni o'ziga kasb qilib olgan edi. Shavkatidan unda na do'st, na o'rtoq bor edi, yolg'iz o'zi yo'lto'sarlik qilar edi.*  
 B) *Ishq dardiga muhtalo bo'lgan asar qahramonini otasi bu darddan xalos etish niyatida uni Ka'baga olib boradi.*  
 C) *Asar qahramoni to'y taraddudida dengizdan yo'lga chiqadi va hiyla domiga bandi bo'ladi, jasorati, mardligi tufayli omon qoladi.*  
 D) *Ishq unga favqulodda iste'dod, tug'ma qobiliyat ato etgan edi. Buning natijasi o'laroq ta'limning dastlabki uch oyida butkul savod chiqardi, bir yilda Qur'oni karimni yod oldi.*

25. Qaysi shoir o'zining g'azal shaklida yozilgan she'rida "g'ayri tili", ya'ni xorijiy tillarni ona tilidek bilish "foida kondur", "ilm-u hunarlar ondind ayondur" deya buning kishi va jamiyat hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini bashorat qiladi?

- A) Avaz O'tar B) Muhammadsharif So'fizoda  
 C) Abdulla Avloniy D) Zavqiy

26. *Ko'ngil, sen munchalar nega  
 Kishanlar birla do'stlashding?  
 Na faryoding, na darding bor,  
 Nechun sen muncha sustlashding?*  
 "Ko'ngil" nomli she'rdan keltirilgan ushbu parcha muallifini toping.

- A) Hamza B) Fitrat C) Usmon Nosir  
 D) Cho'lpon

27. Oybekning "Navoiy" romanida Alisher Navoiy: "Qo'llarini go'dak qoni bilan bo'yaganlarni, kimlar bo'lmasin, hech vaqt oqlamaymen, kechirmaymen. Har vaqt ularga la'nat o'qiyman! Ammo xalq va davlat aybdor emas. Buni yaxshi fahmlamoq kerak, axir..." – deya otasidan ko'rgan haqsizliklar to'g'risida shikoyat qilgan qaysi adabiy qahramonga yurt, xalq oldida, tarix oldida shaxsiy ginalarning hech qiymati yo'qligini isbot etmoqchi bo'ladi?

- A) Badiuzzamonga B) Husayn Boyqaroga  
 C) Nizomulmulka D) Xo'ja Afzalga

28. *Olti oykim, ruhim shunday uchmish tanadan,  
 Olti oykim, meni xayol ezar beomon.  
 Olti oykim, allakimlar pana-panadan  
 Tosh otadi darvozasiz qalbinga tomon.*  
 Ushbu she'riy parcha muallifini aniqlang.

- A) Abdulla Oripov ("Sarob")  
 B) Muhammad Yusuf ("Yangi yil kechasi")  
 C) Erkin Vohidov ("Dangasalar")  
 D) To'ra Sulaymon ("Armon")

29. Qaysi asarda shiroljin o'simligini "sadoqatli do'st" bilib, unga mehri tushgan, "biror ko'ngilsizlik yuz berib, pinhona yig'lagisi kelganda shiroljin tagidan panoh topa" digan, tengdoshlarsiz, kattalar ichida yolg'izlanib qolgan qahramon ishtirok etadi?

- A) "Hellados" B) "Oq kema"  
 C) "Shum bola" D) "Alvido, bolalik"

30. Munisning "Ishqing o'tidin o'rtanadur joni nizorim..." deb boshlanuvchi she'rining janrini aniqlang.

- A) mustazod B) murabba' C) musaddas  
 D) muxammas

## II variant

1. *Tojikning oti Tursun bo'lsa, o'zbekning oti  
 Gulom bo'lsa, uning tojikligi-yu mening  
 o'zbekligim qayoqqa borar edi?*

Berilgan parchadagi fonetik hodisa asosida yozilgan so'zlar haqida berilgan to'g'ri fikrni belgilang.

- A) Fonetik hodisalar faqat yasama so'zlar tarkibida kuzatilgan.  
 B) Fonetik hodisalar shakl yasovchi va so'z yasovchi qo'shimchalar ta'sirida ro'y bergan.  
 C) Tovush almashishi lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar ta'sirida ro'y bergan.  
 D) Tovush tushishi olmosh tarkibida kuzatilgan.

2. Qaysi gap tarkibida imloviy jihatdan xato yozilgan so'z uchraydi?

- A) *Universitet faoliyati to'g'risidagi tashviqot ishlarini olib borishda faol qatnashdik.*  
 B) *Sarvar juda qo'rqib ketganidan voqeaning butun tafsilotini unga birma-bir gapirib berdi.*  
 C) *Har doim onam tayyorlagan shirin-shirin taomlarni tanavvul qilish xush yoqadi.*  
 D) *Bugungi ko'rik-tanlovda qatnashish uchun litseydan uchta o'quvchi tavsiya etilgan.*

3. Qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan so'z metafora usulida ko'chma ma'no hosil qilgan?
- A) *Auditoriya bir lahza jim qoldi.*  
 B) *"Rossiya"ga qanday borsam bo'ladi?*  
 C) *Ko'nglida goho yilt etgan uchqun paydo bo'ladi, bu – umid, ro'shnolik, najot uchquni.*  
 D) *Eshitgan quloq nima deydi?*
4. Qaysi javobda paronimi mavjud bo'lgan ot berilgan?
- A) *xiyla* B) *podshoh* C) *afzal* D) *tup*
5. Qaysi javobdagi so'zlar shakldoshiga ega?
- A) *asir, hiyla* B) *ortmoq, tugmoq*  
 C) *bo'shamoq, bo'lmoq* D) *adil, a'yon*
6. *O'tganlarni esladim va shundan go'yat afsuslandimki, insonning irodasi eskirmas ekan-u, o'zi charchab qolar ekan.*  
 Ushbu gapda qatnashgan yasama so'zlar haqida berilgan noto'g'ri fikrni toping.
- A) *yasama so'zlar bir xil gap bo'lagi vazifasini bajargan*  
 B) *barcha yasama so'zlar tuzilshiga ko'ra o'zaro bir turga mansub*  
 C) *yasama so'zlarning ikkinchi darajali bo'laklar vazifasini bajarishi kuzatilmaydi*  
 D) *barcha yasama so'zlarning yasali sh asosi o'zaro bir xil so'z turkumiga mansub*
7. Yasali sh asosi fe'lga mansub bo'lgan otlar berilgan javobni belgilang.
- A) *pishiqchilik, suvoqchilik, kamchilik*  
 B) *siniq, to'liq, to'kin*  
 C) *terimchilik, atamashunos, chidam*  
 D) *sog'inch, o'kinch, sevinch*
8. Qaysi gap tarkibida fe'l yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan fe'llarning munosabat shakli qatnashmagan?
- A) *Uning sovuqdan lablari ko'karib ketgan.*  
 B) *Farovonlik istasang, baxtli bo'lganingda ham do'st-yor orttir.*  
 C) *O'sha paytlar u Toshkentda yashardi.*  
 D) *Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar.*
9. Quyidagi qaysi gap(lar)da son otlashmagan?
- 1) *Chollarning ikkalasi ham yetmish yoshdan oshgan edi.* 2) *Ikkovi bitta zog'ora nonni yeb qo'yishdi.* 3) *Ikkala kishi darvozadan kirib keldi.* 4) *Ikkalamiz imtihonlarga puxta tayyorlandik.*
- A) 1, 2, 4 B) 2, 4 C) 1, 3, 4 D) 3
10. Qaysi javobdagi fe'llar gapning ikki xil bo'lagi vazifasini bajargan?
- A) *Chol aytibdi: "Qayg'urmang, bu kunlar ham o'tadi ..."*  
 B) *Sen ko'rmayapsan, yulduzlar birin-ketin so'nib boryapti.*  
 C) *Biror yulduz uchsa, derlar: «Kimdir o'tdi bu olamdan. . . ».*  
 D) *Bahor keldi, endi ortiq qish emas, Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.*
11. Qaysi javobda hol vazifasida kelgan fe'llarning yetakchi morfemasi shakldoshlik xususiyatiga ega?
- A) *Qubbon sohilida qomating bukib, Oltin barglaringni ko'l uzra to'kib Nimalar haqida surasan xayol...*  
 B) *Og'riqdan qaqshagan belimiz silab, Kavushimiz sudrab, chunon imillab, Belimiz changallab yurayotirmiz . . .*  
 C) *Esimda: oq tutlar ayni g'arq pishgan, Yashil shoxlar aro terardik quvnab.*  
 D) *Ikki o'g'il yana chol Qoshiga qaytishibdi Va bor gapni oqizmay, Tomizmay aytishibdi.*
12. *Har qanday ismning berilishi ota-onaning biror maqsadi, shirin orzulari, farzandining sog'lig'ini, istiqbolini ko'zlagan ezgu niyatlaridan kelib chiqadi.*  
 Ushbu gapdagi boshqaruv munosabatli so'z birikmalari sonini aniqlang.
- A) 5 B) 3 C) 6 D) 4
13. Qaysi javobda holli so'z birikmasi ishtirok etmagan?
- A) *Kelajagim obidasin qurgan insonman! O'sha jonman, o'sha qonman va o'sha shonman!*  
 B) *Buncha bino qo'yma zarrin choponlarga, Saratonda yaproq bo'lg'in dehqonlarga.*  
 C) *Qo'rqqoqning ko'ziga tik qara, bolam, Biror so'z demasdan uzoqroq qara.*  
 D) *Bu hikmat sharhini o'yladim uzoq – Rostdan ona erur qiblai olam.*

14. *Ustozlarimiz bizga buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishni, ularni e'zozlashni, xalq manfaati yo'lidagi ezgu ishlarini davom ettirishni har doim uqtirib kelishgan.*  
Ushbu gapda ishtirok etgan gap bo'laklari haqidagi qaysi fikr to'g'ri?
- A) Ushbu gapda kesimga bilvosita tobelangan hol qatnashgan.  
B) Ushbu gapda vositali to'ldiruvchilar kesimga faqat bilvosita tobelangan.  
C) Ushbu gapda kesimga bevosita va bilvosita tobelangan vositasiz to'ldiruvchilar qatnashgan.  
D) Ushbu gapda kesimga bevosita tobelangan aniqlovchi qatnashgan.
15. Turli so'z turkumlari bilan ifodalangan ravish hollari qatnashgan gapni aniqlang.
- A) *G'avvos apil-tapil o'rnidan turdi, dod solib arava orqasidan ergasha boshladi.*  
B) *Bular piyoda asta-sekin o'rdaga bordilar.*  
C) *Do'stlar oldinda kutmoqda, biz ham manzilga yetib olaylik.*  
D) *Aravalar birin-ketin yura boshlagach, G'avvos bir ilonni sekin Zavrakning tizzasiga qo'ydi.*
16. Sifatlovchi aniqlovchi ishtirok etmagan javobni aniqlang.
- A) *Bahor osmonida chaqnasa chaqin, Ko'ksingdan otilar olovli nafas.*  
B) *Chinor soyasidan bahramand bo'lib, Turfa xil ertaklar to'qimoq oson.*  
C) *Qalbimning parchasi singmasa agar, Rozimasman, birov hadya etsa zar.*  
D) *Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor, Toshlarini yig'latgan dostonlaring bor.*
17. *Bu asar yozilgan paytlarda xalqimiz tarixini to'la va atroflicha o'rganish, o'tmishda o'tgan sarkardalar, amirlar va xonlar faoliyatiga xolis baho berish nihoyatda mushkul, xatarli ish edi.*  
Berilgan gapda qaysi bo'laklar uyushgan?  
1) kesim; 2) ega; 3) hol; 4) to'ldiruvchi; 5) aniqlovchi  
A) 2, 4 B) 2, 3, 5 C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 4, 5
18. *Maktabimizning orqasida kattagina mevazor bog' ham bor, lekin bu daraxtlar meva qiladimi, yo'qmi, hozir o'ylay-o'ylay hech xotirlay olmadim.*  
Ushbu gap ...
- A) murakkab qo'shma gap  
B) bog'lovchisiz qo'shma gap  
C) ergashgan qo'shma gap  
D) bog'langan qo'shma gap
19. Qaysi gaplar murakkab qo'shma gap hisoblanmaydi?
1. Shuni unutmangki, xushmuomalalik inson bezagidir va u sizni odamlar bilan yaqinlashtiradi.  
2. Sen uchundir bor hayotim, shuhratim, shonim,  
Qo'llaringni bergil menga, shirin zabonim.  
3. Ikki o'g'il yana chol  
Qoshiga qaytishibdi  
Va bor gapni oqizmay,  
Tomizmay aytishibdi.  
4. Hukmim shudir: merosxo'r shu ukangiz bo'ladi, qarorim qat'iydir.  
A) 2, 3 B) 1, 4 C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 4
20. Qaysi gapdagi tushum kelishigini belgisiz qo'llab bo'lmaydi?
- A) *Ikki hafta davomida erta tongdan qorong'i tushguncha loyni tashishdi.*  
B) *Saidiy o'zining ish bo'lmasiga kirib, deraza yonidagi kresloga o'tirdi-da, kitobni o'qiy boshladi.*  
C) *Onam har gal gilamni qoqqanda qop-qora chang ko'tariladi.*  
D) *Tushuntirishning hozirgi ilm-fan uchun, ayniqsa, tarix, falsafa hamda mafkura uchun qanchalar muhim ekanligini hayot ko'rsatmoqda.*
21. Qaysi qo'shma gap qismlari orasida // belgisi o'rnida vergul qo'yilishi lozim?
- A) *Vaqting ketdi // naqding ketdi.*  
B) *Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling // odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin!*  
C) *Kurashda bir tabiat qonuni bor // davrada mag'lub bo'lgan polvon taqdirga tan berib ketmaydi.*  
D) *Oltmishga kirib bildim // umrim bekorga o'tmabdi.*



22. Qaysi javobda “Rustamxon” dostoni voqealariga oid ma’lumot berilgan?
- A) “Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi deb, bir nechalar oldimizga yo’lga chiqib, bizlardan tilla tanga in’om olsa”, – deb o’ylab biylar ovga jo’nab ketibdi.
- B) Mard polvon “Yor deyma-ku, nomus-orga boraman” deya begona yurtga otlangan o’g’liga: “Kechsang yomon bo’lar ota-onadan”, “Bir qiz uchun unutmagin bizlarni”, deya nasihatlar beradi.
- C) Xon qizning suratini ko’rib bildiki, o’g’li bu go’zaldan boshqani demas. Xon noiloj javob bermoqchi bo’lib lashkarlarini yig’adi, “Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo’r yarar kuningga”, deb qirq yigit beradi, qirq xachirga zar ortib beradi.
- D) Boshqa mamlakatga safarga ketgan xon farzandli bo’lganini suyunchilagan kishiga “ayamasdan tanga-tilla beraman, balki qo’rg’onbiy qilarman”, deya niyat qiladi.
23. Pahlavon Mahmud haqidagi to’g’ri ma’lumotni aniqlang.
- A) Ijodkorlarning turli guruhlarida haqida "Vasf ul-shuaro" masnaviysini yozgan.
- B) Shoirning “Kanz ul-haqoyiq” nomli masnaviysi bor.
- C) Asarlaridan biri Misr amiri Batxasbekka bag’ishlangan.
- D) Buxoroga borib Yusuf Hamadoniy qo’lida tahsil olgan.
24. Berilgan qaysi ma’lumot Bobur ijodiga tegishli?
- A) Farohiyning “Mahbub ul-qulub” asarini tarjima qilgan.
- B) Shoir aruz haqida “Muxtasar” nomli asar yozgan.
- C) “Risola” asarida Navoiy va Jomiyga yuksak ta’riflar bergan.
- D) Ijodkor “Gap ta’rifida” nomli etnografik asar yozgan.
25. *Ilm-u fan uyig’a yuboringlar bolangizni, Onda o’qig’onlar bori yaktoyi zamondur.* Ushbu misralar muallifini aniqlang.
- A) Hamza B) Avaz O’tar C) So’fizoda D) Zavqiy
26. “Fors shoiri Umar Hayyom”, "O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli ilmiy asarlar muallifini aniqlang.
- A) Behbudiy B) Fitrat C) Avloniy D) Hamza
27. Saida Zunnunovaning ilk she’ri nomi berilgan javobni aniqlang.
- A) “Tuyg’ular” B) “Gulxan” C) “Qizingiz yozdi” D) “Salom senga”
28. “Odam bolasi tug’ilgan paytda pokiza bo’ladi-ku. Uning umrbod shunaqa pokiza bo’lib qolishi sizga, menga, hammaga bog’liq emasmi?” “Bahor qaytmaydi” qissasida ushbu insonsevarlik ruhida aytilgan so’zlar qaysi adabiy qahramonga tegishli?
- A) Anvar B) Mutal C) Kabir D) Alimardon
29. Haynrix Hayne faoliyati bilan bog’liq ma’lumotni aniqlang.
- A) Badiiy adabiyotda birinchi bo’lib jonivorlarni badiiy asarning bosh qahramoni qilib oldi.
- B) Angliyaga qilgan sayohatidan keyin "Tubanlik kishilari" degan ocherklar to’plamini nashr ettirdi.
- C) Huquqshunoslik fakultetini bitirib, diplom olgan bo’lsa-da, bu sohada biror kun ishlamagan.
- D) Ahamiyati jihatidan Nobel mukofotiga teng bo’lgan Hans Kristian Andersen mukofotiga sazovor bo’lgan.
30. Roman-trilogiyalar to’g’ri ko’rsatilgan javobni belgilang.
- A) “Farg’ona tong otguncha” (M. Ismoiliy), “Forsaytlar haqida qo’shiq” (Golsuorsi)
- B) “Shaytanat” (Tohir Malik), “Ulug’ saltanat” (Muhammad Ali)
- C) “Xan al-Xalili”, (N. Mahfuz), “Ufq” (S. Ahmad)
- D) “Qora dengiz to’lqinlari” (V. Katayev), “Mash’al” (H. G’ulom)

### III variant

1. Berilganlardan urg’u oxirgi bo’g’inga tushmaydigan so’zlar ajratib ko’rsatilgan javobni belgilang.
- 1) gazeta; 2) traktor; 3) o’rikzor; 4) paxtakor; 5) respublika
- A) 2, 3, 5 B) 1, 2, 5 C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4

2. Shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shiganda so'z imlosida sodir bo'ladigan fonetik hodisa to'g'ri izohlanmagan javobni aniqlang.
- A) *Maqsad ravishdoshini hosil qiluvchi qo'shimcha fe'l asosidagi tovush ta'sirida fonetik hodisa asosida yozilishi mumkin.*
- B) *Ayrim so'zlarga kelishik qo'shimchasi qo'shilganda so'z asosida tovush almashishi bilan bog'liq fonetik hodisa sodir bo'lishi mumkin.*
- C) *Ayrim so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda so'z imlosida tovush tushishi bilan bog'liq fonetik hodisalar sodir bo'lishi mumkin.*
- D) *Ayrim so'zlarga fe'l nisbati qo'shimchasi qo'shilganda so'z imlosida tovush tushishi bilan bog'liq fonetik hodisa sodir bo'lishi mumkin.*
3. *O'z vataningga muhabbingni o'z tilingga muhabbing bilan tasavvur qilasan. Ushbu gapdagi atash ma'nosiga ega ismlar guruhiga mansub so'zlar sonini aniqlang.*
- A) 6 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 4 ta
4. Qaysi javobda o'z paronimi bilan o'zaro bir xil so'z turkumiga mansub bo'la oladigan so'z berilgan?
- A) *xiyla* B) *a'yon* C) *sud* D) *abzal*
5. Qaysi gap tarkibida o'z paronimi bilan o'zaro bir turkumga mansub bo'la oladigan tub so'z qatnashgan?
- A) *Tongda ruhsiz ko'z ochaman, Qovurilar tanda jon.*
- B) *Suvdan chiqqan pahlavonday adil teraklar bo'y rostlab turardi.*
- C) *Olimlar yaqin vaqtlarga qadar kosmik bo'shliqni o'rganishni faqat orzu qila olar edilari.*
- D) *Onalik xotin-qizlarning eng muqaddas burchi sanaladi.*
6. Qaysi javobda tushum kelishigining ikki o'rinda belgili qo'llanishi uchraydi?
- A) *Quyosh yuzung ko'rub yerga yiqildi, Adoqing tufrog'ini surma qildi.*
- B) *Ko'rgali husnuningni zor-u muftalo bo'ldum sanga, Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga.*
- C) *Jonim chiqadur dard ila, jononima ayting, Men xasta gado holini sultonima ayting.*
- D) *Lozim siza har tilni biluv ona tilidek, Bilmakka oni g'ayrat eting, foida kondir.*
7. Qaysi javobdagi juftliklarda ot va sifat yasovchi qoshimchalar o'zaro omonimlik hosil qilgan?
- A) *supurgi-kuzgi* B) *kelinchak-kuyunchak*  
C) *qarsak-o'ksik* D) *to'lin-to'kin*
8. *Yuragimda ko'pdir alamli dardlar, Mening qizim – sening singling, nomardlar. Qizing ber, deb mening ko'nglim bo'lasan, Suyagimni yongan o'tga solasan.* Ushbu parchada fonetik hodisaga uchragan nechta ot qatnashgan?
- A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta
9. *Meni kutayotir ajib kelajak, U mening iqbolim, mening baxtimdir. Men ko'rmagan baxtni kimdir ko'rajak, Men aytmagan so'zni aytajak kimdir.* Ushbu parchada qatnashgan olmoshlar haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- A) *III shaxs kishilik olmoshi aniqlovchi vazifasini bajargan.*
- B) *Ushbu parchada sodda va qo'shma olmoshlar qatnashgan.*
- C) *Fonetik o'zgarish asosida yozilgan olmoshlar kishilik olmoshlari sanaladi.*
- D) *Ushbu parchada kesim vazifasini bajargan gumon olmoshi qatnashgan.*
10. Qaysi gapda qo'shma fe'llar mavjud?
- A) *Shubhasiz, Vatanimizning kelajagi yorug' va ertasi porloq.*
- B) *Bilim kaliti yordamida yo'llarida uchraydigan muammolarni yechib ketaveradilar.*
- C) *Kelajakning oltin kaliti turli sohalarda o'zini ko'rsata oladigan yoshlar qo'lida.*
- D) *Xalqimiz farzandlari bugun dunyoning eng taraqqiy etgan bilim dargohlarida ta'lim olib kelmoqdalar.*

11. Qaysi gapda vazifadosh bog'lovchi qo'shma gap qismlarini bog'laman?
- A) Qaraysan, yiroqda bir yo'lchi tanho,  
Na ortga burilar, na chiqar sasi.
- B) Na men senga ishq izhor etdim, Na sen menga mayl etding oshkor.
- C) Na oltin, na javohir edim...  
Armonli bir shoir edim.
- D) Na so'zlarida ma'no bor, na ishlarida hayo bor.
12. Adabiyotga oshno tutingan odam qalbiga noyob hislar ko'chib o'tishi aniqdir.  
Berilgan gapda moslashuvli tobe bog'lanishlar sonini aniqlang.
- A) 2 B) 4 C) 1 D) 3
13. Ustozlarimiz bizga buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishni, ularni e'zozlashni har doim o'rgatib kelishgan.  
Ushbu gapdagi boshqaruv usuli bilan birikkan so'z birikmalaridagi hokim so'zlar qanday gap bo'laklari vazifasida kelgan?
- A) kesim, vositasiz to'ldiruvchi  
B) vositali to'ldiruvchi, kesim  
C) vositali to'ldiruvchi, vositasiz to'ldiruvchi  
D) vositasiz to'ldiruvchi, hol
14. Qaysi gapda metafora usuli bilan ma'nosi ko'chgan so'zlarning barchasi kesim vazifasida kelgan?
- A) Daraxtlardagi sariq barglar to'kilib tugagan,  
yer yuzi o'zining qishki sariq kiyimini kiygan edi.
- B) Navoiy kuzning so'lg'in nafasati bilan nafas olgan xiyobonlarni aylanib chiqdi.
- C) Unda umid uyg'ondi, fikrlari tiniqlashdi va yuziga tabassum yugurdi.
- D) So'z – ko'ngil dengizidagi bir inju.
15. Ravish hollari faqat bir xil so'z turkumi bilan ifodalangan gapni belgilang.
- A) G'avvos apil-tapil o'rnidan turdi va dod solib arava orqasidan ergasha boshladi.
- B) Ona sekin eshikni ochib qaradi va berilib kitob o'qiyotgan bolasini ko'rib xotirjam bo'ldi.
- C) Aravalar birin-ketin yura boshlagach, G'avvos bir ilonni sekin Zavrakning tizzasiga qo'ydi.
- D) Onasi qizchasiga mehr bilan, sekin tushuntira boshladi.
16. *U kelsa, oshnasini ko'rmay ketmaydi.*  
Ushbu gap haqida berilgan to'g'ri fikrni toping.
- A) Ushbu qo'shma gapdagi sodda gaplarning kesimlarida har xil shaxs-son ma'nosi ifodalangan.
- B) Ushbu qo'shma gapdagi sodda gaplarda tasdiq ma'nosi ifodalangan.
- C) Ushbu qo'shma gapdagi sodda gaplarning kesimlarida o'zaro bir xil mayl ma'nosi ifodalangan.
- D) Ushbu qo'shma gapdagi sodda gaplarning kesimlari har xil nisbat shaklida qo'llangan.
17. Tog'asining shu odati sababli u bu xonadondan bezib ketdi, endi qaytib kelmaslikka so'z berdi.  
Ushbu gapda olmoshlar qaysi gap bo'lagi vazifasida qo'llanmagan?
- 1) kesim; 2) ega; 3) hol; 4) aniqlovchi;  
5) to'ldiruvchi
- A) 1, 3, 4 B) 2, 3, 5 C) 1, 3, 5 D) 2, 4
18. *Neki bo'lsa menga eng aziz,  
Eng mo'tabar bo'lsa dunyoda,  
Borlig'imni band etsa ne his,  
Bari edi unda ifoda.*  
Ushbu she'riy parcha haqidagi to'g'ri fikrni toping.
- A) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap  
B) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap  
C) aralash murakkab qo'shma gap  
D) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap
19. Faqat bosh gap qismida yasama so'z(lar) qatnashgan ergashgan qo'shma gapni aniqlang.
- A) Tilagim shuki, ukalarim muhtojlik nimaligini bilmasin.
- B) Bizning maqsadimiz kishilarning dunyoqarashlarini shakllantirmoqdir, chunki har bir kishi yaxshilik va yomonlikni, oq-u qorani o'zi ajrata oladigan bo'lishi kerak.
- C) Qaysi narsaga o'z mehnating bilan erishsang, o'sha narsa sen uchun qadrlidir.
- D) Kimki dushmani bilan olishganda ham insonparvarlikni unutmasa, u, albatta, yengadi.

20. Qaysi javobdagi fe'lda I shaxs birlik ma'nosi o'rnida II shaxs birlik shakli qo'llanishi uchraydi?
- A) "Yigitlar, bir harakat qilsak, marra bizniki, ana boshliq ham keldilar", – dedi Yolqinjon.  
 B) Kamina xizimatingizni sidqidildan bajaradi, xavotir olmang, aka.  
 C) "Qani, qizim, marhamat qilsinlar, mehmonlar sizni kutib qolishdi", – dedi uy egasi iltifot bilan.  
 D) "Bu dunyoning ishlariga hayron qolasan", – dedi Nodirjon o'z-o'ziga gapirib.
21. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?
- A) Behbudiy: "Maktab dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir," – deb yozadi.  
 B) Xalil bobo nevarasiga girgittan bo'lib: "Hoy bolam senga nima bo'ldi?" – der edi.  
 C) "Hunari va odobi bo'lmagan kishidan, – deydi Mahmud Koshg'ariy – baxt va davlat ketadi".  
 D) "Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun, avvalo, insonni tushunish, anglash kerak", – deyiladi "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida.
22. Xalq dostonlari qahramonlaridan qaysi biriga "Kelganboy" deb murojaat qilinadi?
- A) Boysariga B) Ravshanga  
 C) Rustamxonga D) Kuntug'mishga
23. Navoiy "Xamsa"sining qaysi dostoniga Sa'd haqidagi hikoyat kiritilgan?
- A) "Farhod va Shirin" B) "Sab'ayi sayyor"  
 C) "Saddi Iskandariy" D) "Hayrat ul-abror"
24. Qaysi ma'lumot Xo'janazar Huvaydo hayoti va ijodi bilan bog'liq emas?
- A) Adib "Rohati dil" manzumasi, "Tbrohim Adham" dostoni muallifidir.  
 B) O'g'li Sirojiddin (Sirojiiy) va nabirasi Salohiddin (Sohib) ham shoir bo'lishgan.  
 C) Vosifiyning "Badoye ul-vaqoye", Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy" asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.  
 D) Chimiyonda maktabdorlik, shuningdek, kosiblik bilan shug'ullangan.
